https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
San’atshunoslik va Amaliy san’at fakultiteti
Muzeyshunoslik:Muzey menejmenti va madaniy turizm yo’nalishi
3-bosqich talabasi
Karimjonova Mohinur Odiljon qizi

SHARQNING BOYSUN MADONNASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada taniqli musavvir Vladimir Burmakin ijodining o‘ziga xos qirralari, xususan, uning asarlarida o‘zbek ayolining ma’naviy-ruhiy dunyosini ochib berish mahorati tahlil qilingan. Tadqiqot markazida Boysun xalqi hayoti va milliy liboslarining tasviriy san’atdagi o‘rni, shuningdek, sho‘ro davri davlat siyosati hamda xalqning turmush tarzi o‘rtasidagi ziddiyatli holatlarning badiiy ifodasi yoritilgan. Maqolada portret janrining psixologik jihatlari, xususan, ayol va bola nigohidagi dildoshlik, sharqona andisha va mahzunlikning ranglar gammasi orqali berilishi ilmiy asoslab beriladi. Shuningdek, asardagi ranglar simvolikasi — quyuqlashgan qora va binafsha ranglarning obraz mantiqini kuchaytirishdagi ahamiyati, milliy liboslar va taqinchoqlarning etnografik xususiyatlari hamda ularning o‘zbek madaniy merosi bilan bog‘liqligi keng ko‘lamda tadqiq etilgan.

Abstract

This article analyzes the unique facets of the famous artist Vladimir Burmakin's creativity, specifically his mastery in depicting the spiritual and psychological world of Uzbek women. The research focuses on the representation of the life of Boysun people and national costumes in fine arts, as well as the artistic expression of conflicting situations between Soviet-era state policies and the traditional lifestyle of the people. The article scientifically substantiates the psychological aspects of the portrait genre, particularly the connection between the gazes of a mother and child, and the portrayal of Eastern modesty and sadness

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

through color palettes. Additionally, the symbolism of colors in the work — specifically the significance of dense black and purple tones in strengthening the logic of the character — is explored. The ethnographic features of national costumes and jewelry and their connection to the Uzbek cultural heritage are extensively researched.

Аннотация

В данной статье рассматриваются художественные особенности творчества известного живописца Владимира Бурмакина, в частности, его мастерство в раскрытии духовно-психологического мира узбекской женщины. В центре исследования находится роль быта жителей Бойсуна и национального костюма в изобразительном искусстве, а также художественное выражение противоречий между государственной политикой советского периода и традиционным укладом жизни народа. В статье научно обосновываются психологические аспекты портретного жанра, в частности, эмоциональная связь между матерью и ребенком, передача восточной скромности и меланхоличной радости через цветовую гамму. Кроме того, всесторонне исследуется символика цвета в произведении — значение сгущенных черных и фиолетовых тонов в усилении логики образа, а также этнографические особенности национальной одежды и украшений и их неразрывная связь с многовековым культурным наследием Узбекистана.

Kalit so‘zlar

Vladimir Burmakin, portret san’ati, Boysun, milliy libos, sharqona andisha, madona, ranglar simvolikasi, psixologizm, badiiy mahorat, etnomadaniyat, sho‘ro davri san’ati.

Kirish: O‘zbekistonning eng taniqli va yirik rassomlaridan biri bo‘lgan Vladimir Burmakin 1938-yil 9-yanvarda Yekaterenburg shahrida tug‘ilgan, uning oilasi esa tug‘ilganidan so‘ng darhol Toshkentga ko‘chib kelgan. Otasi Ivan Burmakin ham rassom bo‘lib, qandolatchilik bilan shug‘ullangan va Buyuk Vatan urushi boshlanishidan biroz oldin vafot etgan.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

1957-yilda Pavel Benkov nomidagi Respublika badiiy bilim yurtini tamomlagan. Bilim yurtidan so‘ng bir muddat Samarqand maktabida rasm va chizmachilik fanlaridan dars bergan, keyinchalik Toshkentdagi Ofitserlar uyida bosh rassom bo‘lib ishlagan. O’n bir yil davomida O‘zbekiston san’atining yirik namoyandalari — xalq ustasi, ganch o‘ymakori T. Arslankulov, O‘zbekiston SSR xalq rassomi A. Abdullayev ustaxonalarida ijodiy mahoratini oshirgan[1]. 1970-yillarning o‘rtalarida Vladimir Burmakin turli texnikalarda 20 dan ortiq monumental pannolarni yaratdi[2]. Xalqlar do‘stligi saroyi, “Paxtakor” metro bekati, Mehnat zaxiralari sport majmuasi, “Zarafshon” restorani uchun. Shuningdek, u Toshkent aeroportidagi, sobiq Senat binosining ichki foyesidagi mozaikalar muallifidir[3]. Burmakinning mahobatli, ayniqsa, dastgohli rangtasvir borasidagi izlanishlari, voqeaband tasvirlari, serjilo obrazlari diqqatga sazovor. Ayollar ruhiy holati jonli ifodalangan portretlar (“Boysun go‘zali”, 1968; “Elvira”, 1983), rangdor, bezak mujassamotlar (“Intizor ayollar”, 1962; “Ota”, 1973; “Daraxt haqida qo‘shiq” triptixi, 1975; “Kimning oti yaxshiroq?”, 1979; “O‘zbekistonning hozirgi fan arboblari”, 1984), “Farhod va Shirin” (hamkorlikda) devoriy rasmlari yaratgan[4].

Asosiy qism: Rassomning bu asarlarning ichida uni butun jahonga tanitgan Boysun madonnasini aytishimiz mumkin, bu asar Sharq va G’arb primitivimi asosida chizilgan asar hisoblanadi. Asarning yaratilish tarixga to’xtaladigan bo’lsak, Burmakinning quyidagi gaplarni kelishitirshimiz mumkin.

Mening ko‘z o‘ngimda odam qiyofasini jonli tarzda tasvirlagan, qiyofa va qomatlarga harakat, nafas va ruh bera olgan Uyg‘onish davrining atoqli vakillari Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Lorensio di Kredi, Piyero di Kozimo, Fra Bartolomeo, Andrea del Sarto, Korrejo va buyuk rangtasvirchi rassomlar Rafael,

[1] Shulepina, N. Tysyachi ottenok akademika Burmakina // “Pravda Vostoka” gazetasi, 2007-yil 13-aprel.
[2] Vazari, J. Eng mashhur rassomlar, haykaltaroshlar va me’morlar hayoti.
[3] Manba: www.vladibur.uz (http://www.vladibur.uz/).


[4] https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston_milliy_ensiklopediyasi/O'zbekiston%20Milliy%20Ensiklopediyasi%20-%20B%20harfi.pdf

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Jorjone va Titsianning ijod namunalari… Muhtasham saroyning turli zallarini ko‘zdan kechirar ekanman, yuzlab sayyohlar ham men kabi ushbu saroyda ro‘yolar olamida sayr qilayotgandek…

Sal kam besh asr ilgari yaratilgan Mikelanjeloning “Zanjirband qul”, “O‘layotgan qul”, “Moisey”, “Madonna Medichi”, “Lorenzo de Medichi”, Bottichelining “Veneraning tug‘ilishi”, Rafaelning “Konestabil madonnasi”, Albrext Dyurerning “Madonna”si — yuz minglab yoki millionlab shaxslar va qator zamonlar tan olgan bu kabi o‘lmas qadriyatlar. Ona, onalik mehri ulug‘langan Leonardo da Vinchining “Madonna”si va mashhur “Mona Liza” portretini, Rafael Santining “Sikstin madonnasi”, “Madonna Benua”, “Qoyadagi madonna” kabi asarlarida ona siymosining tashqi ko‘rinishida odamlar chehrasi jonlantirilib, ularning ichki dunyosi, nozik ko‘ngil holati ifodalangan.

Suratlarning beqiyos jozibasi va sirlarga yo‘g‘rilganligiga maftun bo‘lib, ancha vaqt o‘tganini bilmay qolibman[5].



[5] Burmakin, V. R

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Vladimir Burmakin “Boysun madonnasi”

«Dunyoning o‘nlab mamlakatlarida bo‘lganman, ammo “Boysun madonnasi” dunyoni menga qaraganda ko‘proq aylanib chiqdi. Hayotimdagi eng mashhur ana shu ishimni yaratishga Ro‘zi (Choriyev) sababchi bo‘lgan, — deb eslaydi musavvir — do‘stim meni 1965- yilda Boysunga olib borgan edi. O‘shanda Ro‘zi bilan birga bolalar uyida katta bo‘lgan do‘stimning adashi bo‘lgan Ro‘ziboy degan ajoyib insonning uyida mehmon bo‘lgan edik. “Boysun madonnasi” — ana shu do‘stining rafiqasi. U 23 yoshida allaqachon besh farzandning onasi edi juda chiroyli, Aleksandr Makedonskiyning Roksanasidan kam emasdi. (Muallif o‘z kartinasini “Boysun Roksanasi” deb nomlagan, ammo bu asar Yevropada “Boysun madonnasi’” nomi bilan mashhur bo‘lib ketdi — B.U.)[6]. Boysunda meni hamma narsa maftun etardi — tog‘ havosi, yonbag‘irlarga qurilgan uylar, tomlar ustida u yoqdan bu yoqqa yugurib yurgan bolalar, yer hidlari. Uy egalarining turar joyi kichkina edi… Yosh uy bekasidan bir nechta eskizlar chizdim, kartinani esa 1968 yil Toshkentga kelib o’z ustaxonamda xomaki eskizlar asosida ishladim” [7].

Hozir o‘zim ham bu asarni sog‘insam ko‘rgazmaga borishimga to‘g‘ri keladi. O‘shandayam ko‘rgazma Toshkentda bo‘lsa! Bu asar dunyoga chiqib ketganiga 40 yildan oshdi. Birgina Parijda 3 marta namoyish etildi (Vladimir Burmakin bilan suhbatdan)»[8].Asar 1968–1975-yillar oralig’ida butun dunyoga mashhur bo’lib ketgan. 1968-yil Moskvadagi “Manej” markaziy ko’rgazma zalida o’tkazilgan Butunittifoq ko’rgazmasida namoyish etilgan va SSSR miqyosida shov-shuvga sabab bo’lgan.

Asar syujeti oddiy va uzviy, milliy libosdagi yosh ayol qo‘lida farzandi. Orqasida bir-biriga ulanib ketgan qishloqning oddiy uylari. Lekin ayolning o‘ychan va g‘amgin ko‘zlarida shu qadar samimiylik, muhabbat va ajib sir mavjudki, portretdan ko‘z uzgim kelmadi. Asarda tasvirlangan boysunlik ayolning nigohida sirli ma’nolarni beixtiyor o‘qidim. U samimiy nigohi bilan qandaydir

[6] Epstein, A. D. Vladimir Burmakinning “Baysunskaya madonna” asari haqida maqola. — Elektron manba.
[7] Burmakin, V. Boysunlik ayol (“Boysun madonnasi”). — Muallif bilan suhbat materiallari va ochiq manbalar asosida.
[8] Nataliya Shulepina. “Akademik Burmakinning minglab tuslari” // «Pravda Vostoka», 2007 yil 13 aprel.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

muammoning yechimini mendan so‘rayotganday edi. Beixtiyor xijolat chekkuday bo‘lib, uning hasratiga sherik bo‘lgim keldi[9].

Ayol nigohining teranligi, uning ko‘zida aks etib turgan vazmin o‘ylari faqat shu ayolgagina xos hamda yuksak badiiy mahorat bilan tasvir etilganki, men ham u bilan qo‘shilib o‘y surayotganligimni payqamay qoldim. Musavvir tun endigina cho‘kayotgan g‘ira-shira paytdagi sirli holatni go‘zal tasvirlagan. Quyuqlashgan qora va binafsha ranglar quyosh nurlarini yutib yuborgani uchun ayolning yuz ifodasiga, mantig‘iga kuch bergan, ko‘nglidagi toshqinlikni yorqin ifodalagan[10].

Ta’sirchan obraz zamirida qishloq ayolining iztirobi ham mujassamdek tuyuldi menga. Negaki, sho‘ro davrining avj pallasida yaratilgan mazkur kartinada musavvir turmush qiyinchiliklari yuki ostida qolib ketgan qishloq ayolining umumlashma qiyofasini tasvirlagan edi[11]. Bu asarga umrboqiylik baxsh etgan sifatlardan biri — undagi liboslarning teran xalqchil tomirlarga egaligi. O‘z farzandini bag‘riga bosgan ayolning an’anaviy libosi o’zida milliy xususiyatlarni jipslashtirgan.

Uzun hamda keng, o‘yma yoqali ko‘ylak bo‘yindan bir qarich uzunlikda ko‘krakkacha kesilgan, ingichka jiyak tutilib, bog‘ich qilingan. Ayolning o‘ychan nigohida o‘zbekning ming yillik madaniyati, tug‘ma andishasi namoyon. San’at tarixidan bilamizki, andishali nigohni ko‘p tasvirlashgan. Lekin uni ko‘z oldingizga keltirib qo‘yish hamma san’atkorga ham nasib etmagan[12]. Vladimir Burmakin ana shu qiyindan-qiyin ikki yumushni, andisha va mahzun quvonchni birgina kartinada uyg‘unlashtira olgan, kaftiga olib ko‘rsatgan. Hattoki ona bag‘ridagi bolakay nigohida ham onaga dildoshlik va darddoshlik aks etgan. Muallif asarida ayol qalbining sharqona his-tuyg‘ulari, rang-barang zarblari, ruhiy dunyosi, kechagi tarixiy qadriyatini badiiy ifoda ko‘zgusi orqali namoyon qilgan[13].

[9] Abdirasiylov, S. Tasviriy san’at va uning o‘qitish metodikasi. – Toshkent: “Ilm-ziyo”, 2011.
[10] Ahmedov, M. O‘zbekiston zamonaviy rangtasviri: uslublar va yo‘nalishlar. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2015.
[11] Hoshimov, L. Vladimir Burmakin: Hayoti va ijodiy yo‘li. – Toshkent: “San’at”, 2008.
[12] Tursunboyeva, G. O‘zbek ayoli qiyofasi tasviriy san’atda. – Jurnal: “San’at”, 2019, №3.
[13] Bahriddinov, Sh. Surxon vohasi etnografik xususiyatlarining rangtasvirdagi talqini. Monografiya. – Termiz, 2021.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Vladimir Burmakin umrining oxirigacha jamoaviy va shaxsiy ko‘rgazmalarda faol ishtirok etib keldi. Uning asarlari Rossiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSh, Germaniya, Bolgariya, Turkiya, Polsha va boshqa ko‘plab mamlakatlarning muzey va galereyalarida bir necha bor namoyish etilgan. Vladimir Burmakin jahon tasviriy san’ati tarixiga kirgan ko‘plab asarlar muallifidir. Ular orasida “Boysun Madonnasi” asari ham bor bo‘lib, u Moskvada, Parijda uch marta, shuningdek Germaniyada namoyish etilgan[14].

Nigora Ahmedova O’zbekiston san’atshunosligi bo’yicha yirik mutaxassis, o’zining XX asr o’zbek rangtasviriga bag’ishlangan ilmiy ishlarida ushbu asarning kompozitsion tuzilishi va “milliy modernism”dagi o’rnini tahlil qilgan xususan, “Boysun madonnasi” asaridagi “qattiq uslub” (suroviy stil) va milliy kolorit uyg’unligini ilmiy jihatdan tahlil qilgan[15]. U asarni o’zbek milliy san’atidagi “yangi to’lqin”ning boshlanishi deb baholagan. Hozirgi kunda bu kartina O’zbekiston Davlat san’at muzeyida saqlanadi.

Rimma Yeremyan O’zbekiston san’ati tarixchisi, Burmakin ijodini, xususan, ushbu asarning Yevropa Uyg’onish davri va Sharq ayoli timsoli o’rtasidagi uyg’unligini tadqiq etgan. R. Yeremyan rassomning hayoti va ijodini bevosita o’rgangan va asarning xalqaro ko’rgazmalardagi (Parij, Moskva) ishtiroki haqida arxiv ma’lumotlarini keltirgan[16].

Bahrom Umarov Publisist va tadqiqotchi sifatida asarning yaratilish tarixi va undagi obrazning taqdiri haqida izlanishlar olib borgan. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi (2-jild, “B” harfi). Ushbu ensiklopediyada Vladimir Burmakin ijodiga bag’ishlangan maqolada “Boysun madonnasi” rassomning eng mashhur asari ekanligi va 1968 yilda yakunlangani qayd etilgan.

Xulosa: Vladimir Burmakin ijodini tadqiq etish jarayonida ma’lum bo‘ldiki, musavvir shunchaki tasvirchi emas, balki inson ruhiyatining chuqur qatlamlarini ranglar vositasida ochib beruvchi psixolog-san’atkordir. Tadqiq etilgan asar tahlili

[14] Oripov, B. Tasviriy san’atda milliy va umuminsoniy g‘oyalar. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2013.
[15] Nigora Ahmedova – “O‘zbekiston rangtasviri” (Rangtasvir albomi/monografiya):
[16] Rimma Yeremyan – “Vladimir Burmakin” (Monografiya/Katalog):

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

quyidagi ilmiy xulosalarga kelish imkonini beradi. Birinchidan, kartina sho‘ro davri mafkurasi hukmron bo‘lgan murakkab bir sharoitda yaratilganiga qaramay, unda milliy o‘zlikni anglash va xalqning ma’naviy qadriyatlarini asrab qolish g‘oyasi ustuvorlik qiladi. Musavvir qishloq ayolining mashaqqatli hayotini tasvirlash orqali nafaqat davr muammolarini, balki o‘zbek ayolining barcha qiyinchiliklarga qaramay saqlanib qolgan ichki kuchi va metindek irodasini ifoda etgan. Ikkinchidan, asarda ranglar gammasi (qora va binafsha ohanglar) shunchaki fon vazifasini bajarmasdan, obrazning ruhiy toshqinligini va uning qalbidagi maxfiy iztiroblarni ko‘rsatuvchi asosiy badiiy vositaga aylangan. Bu esa muallifning rangtasvir falsafasini teran tushunganidan dalolat beradi. Uchinchidan, portretdagi etnografik detallar — Boysun milliy liboslari o‘ta aniqlik bilan chizilishi asarga tarixiy-ilmiy qiymat bag‘ishlaydi. Boysun milliy libosi orqali o‘zbekning ming yillik madaniy va badiiy didi umumlashtirilgan obraz darajasiga ko‘tarilgan.

Yakuniy xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Vladimir Burmakinning ushbu asari o‘zbek milliy rangtasvir san’atining durdonalaridan biri bo‘lib, u o‘zida sharqona andisha, ona va bola dildoshligi hamda insoniy qadr-qimmatni mujassam etadi. Bu portret shunchaki bir ayol qiyofasi emas, balki o‘zbek xalqi matonatining badiiy ko‘zgusidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shulepina, N. Tysyachi ottenok akademika Burmakina // “Pravda Vostoka” gazetasi, 2007-yil 13-aprel.
2. Vazari, J. Eng mashhur rassomlar, haykaltaroshlar va me’morlar hayoti.
3.Manba: www.vladibur.uz (http://www.vladibur.uz/).
4.https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston_milliy_ensiklopediyasi/O'zbekiston%20Milliy%20Ensiklopediyasi%20-%20B%20harfi.pdf
5. Burmakin, V. Rasmiy shaxsiy sayt: Vladimir Burmakin ijodi va asarlari haqida materiallar.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

6.Epstein, A. D. Vladimir Burmakinning “Baysunskaya madonna” asari haqida maqola. — Elektron manba.

7.Burmakin, V. Boysunlik ayol (“Boysun madonnasi”). — Muallif bilan suhbat materiallari va ochiq manbalar asosida.

8.Nataliya Shulepina. “Akademik Burmakinning minglab tuslari” // «Pravda Vostoka», 2007 yil 13 aprel.

9.Abdirasiylov, S. Tasviriy san’at va uning o‘qitish metodikasi. – Toshkent: “Ilm-ziyo”, 2011.

10.Ahmedov, M. O‘zbekiston zamonaviy rangtasviri: uslublar va yo‘nalishlar. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2015.

11.Hoshimov, L. Vladimir Burmakin: Hayoti va ijodiy yo‘li. – Toshkent: “San’at”, 2008.

12.Tursunboyeva, G. O‘zbek ayoli qiyofasi tasviriy san’atda. – Jurnal: “San’at”, 2019, №3.

13. Bahriddinov, Sh. Surxon vohasi etnografik xususiyatlarining rangtasvirdagi talqini. Monografiya. – Termiz, 2021.

14.Oripov, B. Tasviriy san’atda milliy va umuminsoniy g‘oyalar. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2013.

15.Nigora Ahmedova –“O‘zbekiston rangtasviri” (Rangtasvir albomi/monografiya):

16.Rimma Yeremyan – “Vladimir Burmakin” (Monografiya/Katalog):